

# PEDAGOGIK MAHORAT

**2**  
**2023**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2-son (2023-yil, mart)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2023**

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>DOLZARB MAVZU</b>			
1.	<i>ЭЛОБ Зуёдулло Сатторович</i>	Девиант хулқ –атворли ўсмирлар муаммосининг илмий асослари ҳақида психологик ёндашувлар ва таҳлиллар	7
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>			
2.	<i>AMONOV Mirjon Namozovich</i>	Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyati va xususiyatlari	12
3.	<i>ASRANBAYEVA Munajat Xalimjanovna</i>	Bolaning jamiyatga moslashuvida rivojlantiruvchi muhitning oʻrni	17
4.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna</i>	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish jarayonida boʻlajak oʻqituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik texnologiyalari	23
5.	<i>DJURAYEVA Lola Rustamovna</i>	Tanqidiy fikrlash pedagogik kasbiy koʻnikmalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida	27
6.	<i>IKRAMOV Amirbek Aminovich</i>	Taʼlimning raqamli transformatsiyasi -- barqaror rivojlanish omili sifatida (“Jismoniy tarbiya” fani misolida)	31
7.	<i>JUMAYEVA Mehrigon Abduvohitovna</i>	Boʻlajak oʻqituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	38
8.	<i>OMONOVA Nilufar Omon qizi</i>	Kooperativ yondashuvni rivojlantirishning oʻrni va ahamiyati	44
9.	<i>SADULLAYEV Ibrat Shuxratovich</i>	Sirtqi taʼlim shaklining oʻziga xos xususiyatlari	49
10.	<i>TILAVOV Muxtor Xasan oʻgʻli</i>	Rahbar kadrlarga psixologik xizmat koʻrsatishning ijtimoiy-psixologik asoslari	54
11.	<i>TOʻYCHIYEVA Shoyista Jumaboyevna</i>	Kichik maktab yoshidagi bolalar emotsional sohasini oʻyin terapiyasi vositasida psixokorreksiyalash	59
12.	<i>TUYCHIYEV Ashurali</i>	Oʻyinlar vositasida oʻquvchilarda intizomli munosabatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon va unga taʼsir etuvchi omillar	64
13.	<i>JOʻRAYEV Akmal Razzoqovich, XALLOQOVA Oygul Olimovna</i>	Zamonaviy yondashuvlar asosida texnologiya darslarni tashkil etish zarurati	69
14.	<i>XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat oʻgʻli</i>	Akademik erkinlikning antropopedagogik asoslari	76
15.	<i>ZARIPOV Lochin Rustamovich</i>	Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli oʻqitishning ahamiyati	80
16.	<i>ИСМОЙЛОВА Нуржахон Зухуриддиновна</i>	Талабаларда оптимистик позиция ва стрессга барқарорликнинг ўзаро боғлиқлиги	85
17.	<i>НАЗАРОВ Акмал Мардонович</i>	Илмий-инновацион фаолият психологик барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилли сифатида	89
18.	<i>НУРАБУЛЛАЕВ Танирберген Алламбергенович</i>	Инновацион етакчилик фаолиятининг ижтимоий-психологик табиати	93
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANGʻICH TAʼLIM</b>			
19.	<i>RAHMONOVA Dilnavoz Muxitdinovna</i>	Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachilari mashgʻulotlarda oʻyin innovatsion oʻqitish metodikasidan foydalanishi	98
20.	<i>HAMROYEV Shuhrat Eliyevich</i>	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda “Ustodi avval” dan foydalanish imkoniyatlari	103
21.	<i>NEʼMATOVA Flora Baxtiyor qizi</i>	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish darslarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	108
22.	<i>НИЯЗОВА Гулбахор Давроновна</i>	Роль предметно-развивающей среды в организации повседневной жизни детей	115
23.	<i>FARMONOVA Shabon Muxamadovna</i>	Boshlangʻich taʼlim mazmunini yangilash va xalqaro baholash	122

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Jumayeva Mehrigon Abdvohitovna,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti  
[doktorantpedagog2019@gmail.com](mailto:doktorantpedagog2019@gmail.com)*

*O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘shila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa bo‘lajak o‘qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etib, uning samarali usullaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga qiziqtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga yo‘naltirishdan iboratdir.*

**Kalit so‘zlar:** oliy ta‘lim, kreativ yondashuv, innovatsion faoliyat, pedagogik ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchilar.

## ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Социально-экономическое развитие Узбекистана во многом зависит от подготовки специалистов, способных в полной мере интегрироваться в мировой интеллектуальный потенциал. И реализация этих задач обуславливает необходимость подготовки будущих учителей и научно-педагогических кадров на основе современных требований, одним из эффективных методов которой является умение заинтересовать будущих учителей творческой деятельностью, вести научно-исследовательскую работу.*

**Ключевые слова:** высшее образование, творческий подход, инновационная деятельность, педагогическое образование, будущие педагоги.

## PREPARING FUTURE TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY BASED ON CREATIVE APPROACH AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*The socio-economic development of Uzbekistan largely depends on the training of specialists who are able to fully integrate into the world intellectual potential. And the implementation of these tasks necessitates the training of future teachers and scientific and pedagogical personnel on the basis of modern requirements, one of the effective methods of which is to interest future teachers in creative activities, conduct research work.*

**Keywords:** higher education, creative approach, innovative activity, pedagogical education, future teachers.

**Kirish.** Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va jamiyatimiz hayotini tubdan qayta qurish borasidagi maqsadlarga erishishni ta‘minlashga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Chunki amaliyotdan ma‘lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar samaradorligi bu borada belgilangan vazifalarni bajarishga safarbar qilinadigan mutaxassislarning kasbiy yetukligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida bilim olish borasida yetarli darajada sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunining “Ta‘lim olish huquqi” nomli 5-moddasida: “Ta‘lim olish huquqi ta‘lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish”<sup>1</sup> mumkinligi ta‘kidlab o‘tilgan.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘shila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa bo‘lajak o‘qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etib, uning samarali usullaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga qiziqtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yo‘naltirishdan iboratdir. Ushbu muhim vazifalarni amalga oshirishning yana bir ahamiyatli tomoni

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг 23.09.2020 йилдаги ЎРҚ-637-сон Қонуни.



shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda, natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug'ilmogda.

Bu borada, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta'minlash, rivojlangan ta'lim tizimiga uyg'unlashish, ta'limda hamkorlikni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo'lib hisoblanadi [1].

**Asosiy qism.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, zamonaviy va sifatli ta'limga bo'lgan motivatsiyani faollashtirish, oliy ta'limda innovatsion faoliyatning o'rni va rolini kuchaytirish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmogda.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ilmiy-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish “XXI asr – intellektual asr” da qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar qilib shakllantirish hozirda nihoyatda dolzarblik kasb etmogda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega bo'lib, uning ijrosi insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boradi. Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo'lib kelgan. O'zbek xalqining o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak, ajdodlarimiz ham yoshlarning innovatsion faoliyatini hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimo e'tibor berib kelishgan va ularning amaldagi orzusi bo'lgan bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig'i yoki ta'lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmand-ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadischilar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo'lgan.

Jumladan, bunday yuksak orzu-istaklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati (“Fozil odamlar shahri”), Yusuf Xos Hojibning “Saodatga eltuvchi bilim”, shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya'qub Charxiy, Xoja Mahmud Porso, Kosoniy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni kabilarning ilmi hadis yo'nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, Amir Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug'bekning koinot ta'limini ommaviy olib borish (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni isloh qilish sohasidagi “Xatti Boburiy”, Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiyasining “Donishmandlik uyi” (“Bayt-ul hikmat”)dagi ta'limotlarida teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o'tmish merosga ega bo'lgan ajdodlar orzusiga erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarda tub burilishlar qilishga, islohotlar qilishga ilhomlantirdi.

Oliy ta'limda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish jarayonida quyidagilar muhim sanaladi:

- pedagog bilimni tashuvchi, yetkazuvchi emas, talabani o'qish, bilim olishida yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbar bo'lishga shart-sharoit yaratish;

- umumbashariy mafkuraviy tamoyillar va xalqimizning boy intellektual merosi, qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy yo'nalishlarini rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasasida talabani o'zini-o'zi o'qitish, faol ishlashga, yakka, juft, kichik guruhlarda mustaqil ishlashga muhit yaratish, o'quv jarayonini individuallashtirish [2].

Jamiyatimiz kelajagi bo'lajak mutaxassislarni zamon talablarini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo'naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.

O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. A.N. Leontyev: «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti - faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy sharti», – deb ta'kidlaydi [3]. Ya'ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, shaxsiy, guruh, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo'naltirilgan harakat hisoblanadi. Inson faoliyati o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy, ilmiy, pedagogik, tadbirkorlik, o'quv-biluv, boshqaruv va innovatsion faoliyatlar kabi. Barcha faoliyatlarining mazmuni, shakli, vositalari o'zgarib borishi natijasida insonning axloqiy madaniyati takomillashib boradi.

«Pedagogik faoliyat – jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarini shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni yosh avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zaruriy faoliyat», – deya ta'riflaydi

B.Ziyomammedov [4]. Hozirgi kunda ijtimoiy va pedagogika sohalarida yangi ilmiy yo‘nalish – innovatsion pedagogik faoliyat va ta‘lim jarayonida innovatsiyalar g‘oyalarining yuzaga kelishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham «o‘qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi hosil bo‘ldi.

Pedagogikada innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta‘limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi g‘oyalar XX asrning 60-yillarida dastlab G‘arbiy Yevropa va AQSH mamlakatlarida «ta‘lim texnologiyasi» tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha davrda Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazlari tashkil etildi.

I.Shumpater va N.Kondratyevlar «Innovatsiya» tushunchasining birinchi yetakchi nazariyachilari hisoblansa, V.A Slastenin, K.Angelovskiy va V.I.Slobadchikovlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning alohida shakli bu innovatsion faoliyat pedagogik ekanligini isbotlashga harakat qilishdi hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olindi. Jumladan, V.I.Slobadchikov shunday yozadi: «Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o‘xshatib bo‘lmaydi, bunday o‘xshatish «Innovatsion faoliyat» termini ma‘nosini sayozlashtirib yuboradi. Chunki har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o‘z tabiatiga ko‘ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma‘lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko‘rib chiqish zarur. Bu amaliyotni aniq sub’yekt nuqtai nazaridan va amaldagi an‘anaga nisbatan jiddiy o‘zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin» [3].

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, o‘qituvchilarning masofadan turib malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, G.A.Mkritichyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovor: “Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bulsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi” [4].

Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablar bilan a‘nanaviy me‘yorlarning mos kelmasligi, amaliyotning yangilanayotgan me‘yorlarni mavjud me‘yorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muommalarni yechishiga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion muhit - pedagogik jamoda, umuman oliy ta‘lim muassasida shunday ijodiy, samimiy do‘stona sharoit tug‘diriladiki, unda o‘qituvchi o‘zini erkin xis qiladi, jamoda ichki intilish moddiy-ma‘naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. U muhitda o‘qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga tayyor bo‘ladi.

Innovatsion faoliyatning maqsadi sarflangan bilim, ko‘nikma va malakadan eng yuqori natija olishdan iborat bo‘lib, boshqa innovatsiyalardan farqli, innovatsion boshqarish va nazorat qilishdagi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta‘lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli «novasiya» va «innovatsiya» tushunchalari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba‘zi elementlarni o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novasiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz..

Innovatsion faoliyatga doir ba‘zi bir tushunchalarni tahlil qilsak, innovatsion o‘zgarishlarga tayyogarlanish va uni amalga oshirish faoliyati innovatsion jarayon hisoblanishini tushunish mumkin:

<b>Innovatsiya</b>	ma‘lum bir faoliyatda shakl, metodlar, muammolarni yechishdagi yangicha yondashuv, yangi texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga qo‘llash orqali yuqori natijalarni ta‘minlash. Bir so‘z bilan aytganda, jarayonga konseptual yondashuv
<b>Novatsiya</b>	Agar islohot faoliyatining shakli, mazmuni va ko‘lami qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit xususiyatga ega bo‘lmasa, u o‘z oldiga muayyan mavjud tizimda faqat ba‘zi elementlarni o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u xolda biz novasiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz
<b>Novator</b>	Yangilikni qabul qilish va uni amalga oshirishga tayyor shaxs. O‘z shaxsiy pedagogik amaliyotida doimiy yanglik izlaydi, o‘zlashtiradi, qo‘llaydi

### 1-rasm. Innovatsion faoliyatga oid tushunchalar

I.P.Podlasiy pedagogik tizimda innovatsion o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini o‘rganish asosida quyidagilarni belgilab beradi:

- pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- o‘quvchi faoliyatining yangilanishi;

- mazmunning yangilanishi;
- boshqaruvning o‘zgarishi;
- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;
- maqsad va natijaning o‘zgarishi.


Ta’lim jarayonidagi innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion pedagogik faoliyatda doimiy uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Pedagogik innovatsiyalarning vujudga kelish holatlari quyidagilar:

- pedagogik tizim ichidagi komponentlar o‘zgarganda;
- yangi tipdagi o‘quv yurtlari ochilganda;
- o‘qituvchi faoliyati yangilanib, o‘zgarganda;
- talabaning faolligi, qiziqishi, mas’uliyati, motivatsiyasi oshganda;
- ta’lim mazmuni yangilanganda;
- ta’limda yangi metod, shakl va vositalar qo‘llanganda;
- ta’lim jarayoni yangicha boshqarilganda;
- ta’lim sifat va samaradorligi oldindan maqsad qilib olinganda.

Oliy ta’limda bo‘ljak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish muammosiga innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borayotganligini natijasida vujudga keldi, uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni emas, balki innovatsiyalarni yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Jamiyat shiddat bilan taraqqiy etib borar ekan, ta’lim sohasi ham u bilan barobar o‘zgaradi va o‘qituvchidan o‘z faoliyatini rivojlantirib, yangilab borishni talab etadi. Bugun o‘qituvchining asosiy vazifasi faqat ta’lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi va boshqarishi lozim. Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra innovatsion pedagogik faoliyat va uning yo‘nalishlari asosan innovatsiya, pedagogik innovatika, innovatsion ta’lim, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar, innovatsion yondashuv, va shu kabilardan tashkil topadi.

Ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni kiritish bosqichlari quyidagilar:



2-rasm. Pedagogik innovatsiyalar bosqichlari

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi” [2] deb ta’riflanadi.

**Innovatsiya** – (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishni o‘zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tamoni o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarni amaliyotga kiritish).

**Pedagogik innovatika** – bu pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish, pirovardida uni amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot. Yangilikni yaratish qonuniyatlarini o‘zlashtirish va targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

Zamonaviy ta’limda pedagogik innovatikaning o’rni va roli katta. Bunga sabab ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab muntazam rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik tizimdir. Ushbu rivojlanish va takomillashish esa ta’lim jarayonini zamon talablarini hisobga olgan holda doimo yangilab borishni talab etadi. Ular asosida ta’limni boshqarishdek muhim bosqichga o’tiladi. Bu holatlar tadqiqotchidan tadqiq etilayotgan manbaga ijodiy yondashuvni talab etadi va bunda ulardagi ilmiy fikrlash qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shular orqali tadqiqotchining o’zi ham innovatsion rivojlanish jarayoniga kirib boradi.

**Innovatsion jarayon** – bu ko‘rib chiqilayotgan ijodiy jarayondagi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga, ya’ni amaliyotga joriy etish va ommalashtirish faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu jarayonning ahamiyatli tomoni shundaki, unda tadqiq etilayotgan manbaga sifat jihatidan ham, samaradorlik jihatidan ham yangilik kiritiladi va bunda tadqiqotchi (ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham) yangiliklar, kashfiyotlar ichida bo‘ladi. Ushbu jarayon innovatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim didaktik asos va pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Yana qayd etish mumkinki, innovatsiya bo‘lajak mutaxassislarni mustaqil faoliyatning zamonaviy shaklini hosil qilish jarayoni, shuningdekularni tahlil qilish hisoblanadi.

**Innovatsion yondashuv** – yangilikni kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko‘rsatkichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishlar. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish.

Innovatsion yondashuvda tadqiqotchi (ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi)ning faoliyatiga erkinlik (ijodiy erkinlik) asosida rahbarlik qilinadi va ularning shaxsiy tashabbuskorligi qo‘llab-quvvatlanadi.

**Innovatsion qobiliyat** – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunishi, muammoni ifodalay olishi, g‘oya farazini ilgari surishi uchun bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari majmuidir. Ta’rifdagi majmua degan tushuncha quyidagilarni o‘z tarkibiga oladi:

- farazni (ilmiy farazni ham, ishchi farazni ham) nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlash;
- muammoni hal qilishni izlash va topish;
- pirovard natijada yangi original mahsulot va ishlanmalar yaratish.

**Innovatsion qobiliyat** tadqiqotchi ijodkorligining harakatlantiruvchi kuchidir. Demak, innovatsion qobiliyat insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne‘mati bo‘lib, bugungi kundagi insoniyat yaratayotgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar shu innovatsion qobiliyatning u yoki bu ko‘rinishidan iborat ekan.

**Innovatsion pedagogik reja** - yaratilgan, tasdiqlangan innovatsion o‘quv-tarbiyaviy loyiha.

**Innovatsion pedagogik g‘oya** - tizimlashtirilgan pedagogik g‘oyalalar, o‘quv jarayonini bashorat etuvchi ma’lumotlar.

**Innovatsion ta’lim** - ta’lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar. Yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni.

Umuman olganda, salohiyat so‘zi kishi yoki jamiyatning ichki imkoniyatlari, hali to‘la namoyon bo‘lmagan kuch-quvvati ma’nosida ishlatiladi.

**Innovatsion faoliyat** - shaxsning egallagan sohasida erkin (ijodiy) faoliyat ko‘rsata olishi, shuningdek uning innovatsiyalarni amalga oshirish borasidagi yondashuvlarining pirovard natijasi. Innovatsiyani qo‘llay oladigan salohiyatli olimlar o‘zi shug‘ullanayotgan sohasidagi bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qo‘llay olishga innovatsion yondasha oladi.

Innovatsion faoliyat va uning tarkibiy qismlari haqida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bu ma’lumotlar ta’lim jarayonini va bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning optimal variantlarini ishlab chiqishda mustahkam didaktik omil hisoblanadi. Shu sababli ham bo‘lajak o‘qituvchilarni muntazam ravishda innovatsion faoliyatga tayyorlab borish zarur. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli va innovatsion rivojlangan mutaxassislar bo‘lib shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni quyidagi bosqichda amalga oshirish mumkin:

1. Innovatsiyalarni pedagogik faoliyatda qo‘llashda o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.
3. Ta’lim jarayoniga innovatsiya kiritilib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

**Xulosa.** Ta’lim tizimida shaxsning fazilatlarini faoliyat ko‘rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi, shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda yangilikka intilish va mustaqil ishlashga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki innovatsiyalar insonga ulug‘vorlikdan ko‘ra ko‘proq zavq bag‘ishlaydi. Agar bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik



faoliyatga tayyorlash vazifalari yuqori saviyada amalga oshirilsa, ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish samarali bo’ladi hamda sezilarli natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

**Adabiyotlar:**

1. Маджидова М. Х., Самиева Ш. Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания // Молодые учёные - развитию Национальной технологической инициативы (Поиск). - 2020. - №. 1. - С. 803-805.
2. Samiyeva Sh. X., Usmonova G. X. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – S. 35-38.
3. Ziyayev T. M. Barkamol avlodni shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning roli //Архив научных исследований. – 2019.
4. Hikmatovna S. S. et al. Professional Development of the Teacher's Personality in the System of Secondary Special Vocational Education //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – S. 2946-2949.
5. Жумаева М.А. Бўлажак ўқитувчиларни креатив ёндашув асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш омиллари // International research and practice conference Engineering & Technology. Египт - 2021. P. 86-89.
6. Жумаева М.А. Бўлажак ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашда замонавий ёндашувлар // Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2021. 4-сон. - Б. 62-66.